



AHOLINING IJTIMOIIY HIMOYASIDA MADANIY FAOLIYATNING O‘RNI

Baxramova Nodira Baxrom qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Yusupova Rahima Kasimova

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy faoliyatning aholining ijtimoiy himoyasi tizimidagi tutgan o‘rni, uning inson salohiyatini ochish, psixologik tiklanish va jamiyatga moslashishdagi vosita sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Muallif — Ijtimoiy himoya milliy agentligi xodimi sifatida, amaliy tajriba va kuzatuvlar asosida madaniyatning ijtimoiy islohotlardagi rolini ochib beradi. Shuningdek, xorijiy tajriba va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, madaniy faoliyat, inklyuziv yondashuv, ijtimoiy integratsiya, madaniyat terapiyasi.

Abstract: This article explores the role of cultural activity in the social protection system. The author examines how culture contributes to social stability, the integration of vulnerable groups, and the development of moral values in society. The paper also highlights the cooperation between cultural institutions and social services within the framework of ongoing reforms in New Uzbekistan.

Keywords: social protection, cultural activity, educational work, mahalla, social stability, moral upbringing.

Bugungi ijtimoiy islohotlar zahirida inson qadri turadi. Ayniqsa, zaif ijtimoiy qatlam – yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, tazyiqqa uchragan ayollar, ijtimoiy yetimlar va ishsiz yoshlar hayotini mazmunli qilishda madaniy faoliyatning o‘rni muhim. Madaniyat – bu jamiyatning ijtimoiy ruhini, birdamligini va salomatligini tiklovchi vositadir.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya davlatning asosiy funksiyalaridan biri sanalsada, bu hol mazkur funksiyani amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida boshqa nodavlat, jamoat tashkilotlarining faoliyat olib borishini inkor etmaydi. Zero, ijtimoiy masalalarni hal etishda nodavlat yoki jamoat tashkilotlari ko‘magidan foydalanish tendensiyasi ko‘plab dunyo mamlakatlari tajribasida keng rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda davlat asosiy funksiyalarini o‘zidan soqit qilmasdan, aksincha, ularni ruyobga chiqarishda turli korxonalar va tashkilotlar, jamoat birlashmalari, xayriya fondlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ko‘magidan foydalanadi.





Hozirgi kunda ijtimoiy himoya sohasidagi boshqaruv asosan nomarkazlashtirilgan tizimga o'tkazilgan bo'lib, mazkur tizim har bir fuqaroning o'zi yashab turgan joyidagi yig'inda olib boriladigan ijtimoiy himoyaga erkin aralashuvini ta'minlaydigan tamoyil asosiga qurilgan. Ayniqsa, bugungi kunda joylarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlatning aholini ijtimoiy himoyalash borasidagi vazifalarni hal etishda faol ishtirok etib, aholiga turli xil ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatilishda, nafaqa va boshqa xil moddiy yordam turlarini yetkazishda, ishsiz shaxslarni ish bilan ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Qolaversa, davlatning bu boradagi ayrim vakolatlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazilishi birinchidan, mazkur tadbirlarning maqsadli va aniq yo'naltirilgan tarzda olib borilishiga, ikkinchidan, jamiyatda insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga yordam berib, bunda mahallalarning mavqeyi yanada oshishiga zamin bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan 2024-yilda 2500 dan ortiq madaniy tadbirlar tashkil etilgan bo'lib, ularda 470 mingdan ortiq ehtiyojmand qatlam vakillari ishtirok etgan. Xususan, "Ona uylari", "Qariyalar uyi", "Muruvvat" muassasalarida o'tkazilgan teatr, rasm, musiqa, adabiyot mashg'ulotlari insonlar hayotida umid va ruhiy barqarorlikni tiklashda katta o'rin tutmoqda.

1. Madaniy faoliyat — ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida

Madaniy faoliyat insonda ijobiy hissiyotlar uyg'otadi, uning ijtimoiy aloqalarini faollashtiradi, jamiyat bilan bog'laydi. "San'at bir umrga jo'shqinlik" loyihasi doirasida qariyalar uylarida sahnalashtirilayotgan kichik spektakllar, konsertlar keksalarni ruhiy yuksaltirmoqda. "Ona uylari"da art-terapiya mashg'ulotlari, qo'g'irchoq teatrlari ayollar va bolalarda ruhiy barqarorlikni ta'minlamoqda.

2. Xorijiy tajriba va O'zbekistondagi qo'llanilishi

Germaniyada "Kultur macht stark" dasturi orqali ishsiz yoshlar va migrantlar madaniy platformalar orqali jamiyatga qaytarilmoqda. Shvetsiyada nogironlar uchun maxsus teatr guruhlarini faoliyat yuritadi. O'zbekistonda bu tajribalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda: "Madaniyat karvoni", "Ijodiy tiklanish" markazlari va mobil kutubxonalar aholining madaniy hayotga yaqinlashishini ta'minlamoqda.

3. Daun sindromi va autizm bilan yashayotgan insonlar uchun madaniyatning o'рни

Daun sindromi va autizmlil insonlar uchun rasm, musiqa, teatr kabi madaniy faoliyatlar ularning o'zini ifodalash, ijtimoiylashish, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. 2024-yilda "Quvonch ovozi" loyihasida autizmlil bolalar sahnada she'rlar o'qib, asbob chalib chiqishdi. "Ranglar sehri" ko'rgazmasida Daun sindromiga ega bolalar chizgan rasmlar jamiyatda katta ta'sir uyg'otdi.





Xulosa va takliflar

Madaniy faoliyat — bu ijtimoiy himoya tizimining yurakka yaqin, qalbni va ruhni sogʻlomlashtiruvchi qismlaridan biridir. U inson salohiyatini ochadi, jamiyatda oʻz oʻrnini topishiga koʻmak beradi.

Takliflar:

- Har bir ijtimoiy muassasada madaniyat terapevti shtatini joriy etish;
- “Muruvvat”, “Ona uyi”, “Qariyalar uyi”larida doimiy art-terapiya va madaniy dasturlar joriy qilish;
- Madaniy tadbirlarning samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish;
- Mahalliy sharoitga mos xorijiy tajribalarni modellashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Radjapova L. N. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish dolzarb vazifa //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – S. 498-502.
2. Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi “Madaniy faoliyat toʻgʻrisida”gi Qonuni (OʻRQ-668).
3. Prezident Farmoni PF–6000-son, 2020-yil 26-may.
4. www.nsa.uz – Ijtimoiy himoya agentligi rasmiysi.
5. www.madaniyat.uz – Madaniyat vazirligi rasmiy sayti.
6. Yusupalieva, Dilafruz K. "The Importance Of National Values In The Formation Of Intellectual Power." *Journal of Positive School Psychology* 6.7 (2022): 5199-5206.
7. Kaxramonovna, Yusupaliyeva Dilafruz. "Mass-Cultural and Concert-Calendar Year Plans of Watching the Formation of the Event." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 4.10 (2023): 30-35.
8. Yusupalieva, D. K. "Political role of television in the development of national ideology." *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (86) (2020): 665-667.
9. Kaxramonovna, Yusupaliyeva Dilafruz. "Modern Trends in the Development of Culture and Art Management." *Journal of Innovation in Education and Social Research* 2.1 (2024): 181-188.
10. Kaxramonovna, Yusupaliyeva Dilafruz. "Implementation of Public-Private Partnership in Culture and Recreation Gardens." *Journal of Innovation in Education and Social Research* 2.1 (2024): 172-180.
11. Yusupalieva, D. K. "Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO." *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85) (2020): 901-903.
12. Юсупалиева, Дилафруз Кахрамоновна. "ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В СФЕРЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСТИТУТОВ ТЕЛЕВИДЕНИЯ." *Russian-Uzbekistan Conference*. Vol. 1. No. 1. 2024.





13. Yusupaliyeva, Dilafruz Qahramonovna. "ROSSIYADA BOG '-PARK QURILISHI TARIXIDAN." *Oriental Art and Culture* 5.5 (2024): 444-450.
14. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
15. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
16. Abatbaevna, Sapparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
17. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 16-20.
18. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.2 (2022): 37-44.
19. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOYIY VA MADANIY MARKETING." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 6-6.
20. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "MUFASSAL MUSHOHADALAR ME'MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 568-580.
21. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O 'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 254-260.
22. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O'ZBEKISTONDA MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.
23. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *International Journal on Integrated Education* 4.12 (2021): 146-151.
24. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2.11 (2023): 67-69.





25. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
26. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhamatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." *Art and Design: Social Science* 3.01 (2023): 1-4.
27. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI." *World of Philology* 2.1 (2023): 59-64.
28. QOLQANATOV, Asilbek. "'O 'ZBEKKONSERT'" DAVLAT MUASSASASI FAOLIYATI: TADQIQOT VA TAHLIL." *TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR* 12 (2023): 8-14.
29. Nazarbai, Kalkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.12 (2023): 65-70.
30. Alfiya, Qolqanatova. "Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.2 (2023): 16-20.
31. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1.1. 1. (2024): 16-20.
32. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
33. Nazarbaevna, Qolqanatova Alfiya, and Kojalepesov Sultanbay Serjanovich. "The Importance of Scenario in Cultural Events." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.2 (2024): 259-262.
34. Yuldasheva, M. B., and A. N. Qolqanatov. "KADRLAR POTENSIALI IJTIMOYIY-MADANIY SOHADA TASHKILOT FAOLIYATI SAMARADORLILIGINI OSHIRISHSHNING YETAKCHI OMILI SIFATIDA." *Inter education & global study* 8 (2024): 58-68.
35. VA, INSONGA E'TIBOR, and SIFATLI TA'LIM YILI. "Imom Buxoriy saboqlari."
36. XOLMO'MINOV, Mo'minmirzo, and Asilbek QOLQANATOV. "YANGI O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR." *O 'zbekiston davlat san 'at va madaniyat instituti xabarlari*.
37. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.

